JAHON ADABIYOTI DURDONALARI

· ROBERT LUIS STIVENSON ·

MEROSXO'R

yoki Devid Belfurning sarguzashtlari



JAHON ADABIYOTI DURDONALARI

ROBERT LUIS STIVENSON

MEROSXO'R

yoki Devid Belfurning sarguzashtlari

(sarguzasht roman)

«ILM ZIYO ZAKOVAT»
Toshkent -2019

UO'K:822.101.02
KBK: 84(Bbr)
S-91

Robert Luis Stivenson. «Merosxo'r yoki Devid Belfurning sarguzashtlari» / roman / ruschadan **Nabijon Boqiy** tarjimasi / «Jahon adabiyoti durdonalari» turkumi – T.: «Ilm-ziyo-zakovat», 2019. 256 b.

Nashrga tayyorlovchi, iqtibos va izohlarni kirituvchi:
Ergashboy MATYOQUBOV

AZIZ KITOBXONLAR!

Qo'lingizdagi ushbu kitob ingliz adibi Robert Luis Stivenson (1850-1894) qalamiga mansub ***"Kidnapped"*** *romanining rus tili orqali (ingliz tilidan rus tiliga Fyodor Aronovich Rotshteyn* ***"Похищенный, или Приключения Дэвида Бэлфура"*** *nomi ostida tarjima qilgan)* ***Nabijon Boqiy*** *tomonidan* ***"Merosxo'r yoki Devid Belfurning sarguzashtlari"*** *nomi ostida tarjima qilingan ko'rinishidir.*

Shuni bilingki, badiiy asarni tarjima qilish (ayniqsa, turkiy tillarga mansub bo'lmagan tildan tarjima qilish) shu asarni qaytadan yozish bilan teng qiyinchilikka ega. Shu tildagi iboralarni so'zlarni, jumlalarni yoki maqol-matallarni maromiga yetkazib tarjima qilish juda mushkul ish hisoblanadi. Chunki bunda tarjimondan bevosita eng kamida ikkita xorijiy tilni mukammal bilish, shuningdek, o'sha til egalari – xalqning turmush-tarzi, etnografiyasini, madaniyatini va tarixini mukammal bilish talab etiladi. *Shuning uchun* ***Nabijon Boqiy*** *ham doimo xalqimizning, ayniqsa, o'quvchi yoshlarimizning tahsin-u tashakkuriga sazovor bo'lgan. Biz ham shular qatorida tarjimon –* ***Nabijon Boqiy****dan ushbu xizmatlari uchun behad xursandmiz!*

"Merosxo'r yoki Devid Belfurning sarguzashtlari" asari – jahon adabiyotining o'lmas durdonalaridan biri hisoblanadi! Bu asar nafaqat badiiy kitob orqali, balki yurtimiz telekanallarida yiliga bir necha bor berilgan videofilmi orqali ham juda mashhur.

Robert Luis Stivenson ushbu romanining asosiy qahramoni – Devid Belfur orqali hayotda doimo adolat va haqiqatning qaroro topishi, oliyjanoblik va ezgulikning ulug'lanishini ko'rsatilgan.

Ushbu kitob ilk bor o'zbek tilida 1991-yilda chop etilgan. Bu davrdagi nashrida ayrim so'z va jumlalarning ma'nosi izohlanmagan yoki ruscha so'zlar, yoki baynalmilal jumlalar orqali berilgan edi. Bu holat bilan biz tarjimonlarni yoki o'sha davr nashriyoti xodimlarini kamsitish fikridan yiroqmiz. Faqat hozirgi davr kitobxonlarining talab va iltimoslariga asosan asar tarjimasiga qo'shimcha iqtiboslar kiritildi va hozirgi o'zbek adabiy tili qoidalari asosida qayta tahrirlandi.

ISBN:978-9943-5857-9-9

© **Robert Luis STIVENSON.**
© **«Ilm-ziyo-zakovat»** nashriyoti.

MEROSXO‘R
YOKI
DEVID BELFURNING SARGUZASHTLARI

Shul haqdakim, yigitcha o‘g‘irlanadi, dengizda kema halokatiga uchraydi, kimsasiz orolda misli ko‘rilmagan azob-uqubatlarni boshidan kechiradi, odamzot oyog‘i yetmagan tog‘-u toshlarda sarson-sargardon bo‘ladi; taqdir taqozosi bilan Alan Brek Styuart[1] va boshqa fidokor shotland yakobinchilariga[2] yo‘liqadi. Qolaversa, hech qanday haq-huquqi bo‘lmasa-da, o‘zini Shos qo‘rg‘onining xo‘jayini deb e’lon qilgan manfur amakisi Ebenezer Belfurning adolatsiz g‘azabiga uchraydi – jabrlanadi. Ushbu voqealar qahramonlarning o‘z qo‘llari bilan yozib qoldirilgan, endilikda Robert Luis Stivenson uni sizning hukmingizga havola etadi.

[1] **Yakobinchilar** – 1793-yil 31-may – 2-iyunda Fransiyadagi to‘ntarish asosida hokmiyat tepasiga kelgan guruh.

[2] **Yakobinchilik** – XVIII asr o‘rtalarida G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida boshlangan inqilobiy xalq harakati. Yakobinchilar inson hurligi uchun kurashganlar.

SAMARQAND ... VILOYATI ... KUTUBXONASI
58042

BAG‘ISHLOV

Azizim Charlz Bakster!

Agar vaqti-soati kelib, ushbu qissani o‘qib qolsangiz, ko‘nglingizda bir talay savollar tug‘ilishi turgan gap. Afsuski, Sizga qoniqarli javob berolmayman – bu mening qo‘limdan kelmaydi. Masalan: «Iye, nahotki, Epindagi qotillik aynan 1751-yili ro‘y bergan bo‘lsa; qanday mo‘jiza tufayli Torrenskp qoyalari naq Irreyd poyiga surilib qoldi ekan?» yoki «Matbuotda e’lon qilingan maqolalarda Devid Belfur to‘g‘risida lom-mim deyilmaganini qanday tushunish mumkin?» – deb so‘rashingiz mumkin. Men bunday yong‘oqlarni chaqolmayman – tishim o‘tmaydi. Ammo: «Alan aybdormi yoki aybdor emasmi!» – deb qayta-qayta so‘raydigan bo‘lsangiz, men kitobda bayon etgan taxminiy fikrlarim uchun boshim bilan javob berishga tayyorman. Epinda tarqalgan rivoyatlar hozir ham Alanning begunoh ekanini tasdiqlaydi. Ishonmasangiz, o‘zingiz «o‘sha» o‘z qo‘li bilan o‘q uzgan kishini so‘rab-surishtiring, ehtimol, uning avlodlarini hozir ham izlab topish mumkin, degan javobni eshitsangiz, ajab emas. Rostini aytsam, qanchalik jon kuydirmang, bari bir «o‘sha» odamning nomini aniqlay olmaysiz: Shotlandiya tog‘liklari sir saqlashni qoyil qiladilar, tashabbusi ularning jism-u joniga qo‘shib singdiriladi. Men mana shu yo‘sinda ertalabgacha muayyan holatning asliga to‘g‘ri ekanini zo‘r berib himoya qilishim va ayni chog‘da boshqa har qanday holatni shubha ostida qoldirishim mumkin. Lekin aniqlikka itoat etishga unchalik hushim ham, ishim ham yo‘qligini biryo‘la bo‘ynimga olib qo‘ya qolsam, tuzuk bo‘lmaydimi? Bu hissa olimlar foydalanadigan dasturilamal emas; uning joyi – uy vazifalarini bajarib bo‘lib, uzun qish kechalarini qanday o‘tkazishni bilmay, noiloj o‘ringa kirayotgan o‘quvchining yotoqxonasidir. Aslida, xiyla og‘ir-vazmin, jangari shaxs – halol Alan o‘zining yangi hayotida faqat jangovarlikni targ‘ib etish bilan shug‘ullanmaydi: Ovidiy asarlariga mukkasidan ketib qolgan ba’zi yosh do‘stlarimni ma’lum muddat

o‘tgan asrlarga oshno etmoqchiman, ularni Shotlandiya tog‘lari bo‘ylab sayohatga chorlayman va o‘ringa kirganlaridan keyin shirin-shirin, jozibador tushlar ko‘rib uxlashlarini istayman.

Qadrdonim Charlz, bu kitob ko‘nglingizga yo‘l topa olishiga ko‘zim yetmaydi. Ammo o‘g‘lingiz voyaga yetgach, qissa unga yoqib qolishi mumkin; balki u o‘z otasining ismini kitob boshlamasidan ko‘rib xursand bo‘lar. Hozir esa ko‘pgina baxtli kunlarimiz-u ba’zan boshimizga yog‘ilgan kulfatlar xotirasi sifatida sizning nomingizni yana bir bor eslayotganimdan, uni shu o‘rinda muhr etayotganimdan bag‘oyat xursandman.

Shu tobda yoshligimizda ro‘y bergan g‘aroyib sarguzashtlarni xayolimga keltirsam, beixtiyor yuragim hapriqadi – o‘zimni qo‘yarga joy topolmay qolaman. Siz ham yoqangizni ushlasangiz kerak-a?! Qancha yillar, qancha zamonlar o‘tib ketdi-ya! Kishini g‘alat kayfiyat chulg‘ab olishi tayin. Chunki siz har kuni o‘sha ko‘chalardan o‘tasiz; ertagayoq ko‘hna munozara klubining eshiklarini ochishingiz mumkin – u yerda bizni hozirdanoq Skott, Robert Emmet va unchalik mashhur bo‘lmasa-da, lekin qizg‘in muhabbatga sazovor Makbin bilan bir qatorga qo‘yishmoqda. Shuningdek, Siz shavkatli L. J. R. [1] jamiyatining a’zolari yig‘ilishadigan ibodatxona hovlisi yonidan o‘tishingiz mumkin: esingizdami, qachonlardir shoiri zamon Byorns oshna-og‘aynilari bilan o‘tiradigan o‘sha o‘rindiqlarga yastanib olib pivo ichardik.

Men yaqqol tasavvur etyapman: do‘stingiz faqat tushlarida ko‘radigan joylarni, ana, Siz kuppa-kunduzi tomosha qilib, sarsari kezib yuribsiz. Kundalik turmush tashvishlaridan forig‘ bo‘lgan damlarda o‘tmishdan kelayotgan sadolar quloqlaringiz ostida tinimsiz jaranglab tursa ne tong! Illo, u do‘stingiz haqidagi ezgu xotiralarni tez-tez uyg‘otib tursin.

R. L. S. Skerrivor, Bornmut.

---

[1]Stivenson a’zo bo‘lgan talabalarning maxfiy jamiyati. «L.J.R» harflari taxminan inglizcha «Libertiy, Justice, Reverence» so‘zlarining qisqartma shakli bo‘lib, «OZODLIK, HAQQONIYAT, HAQ-HUQUQ» ma’nolarini anglatadi.

BIRINCHI BOB

MEN UZOQ SAFARGA – SHOS QO'RG'ONIGA JO'NAYAPMAN

O'z sarguzashtlarim haqidagi hikoyani 1751-yilning unutilmas javzo[1] tongidan boshlashni istardim. O'sha kuni kindik qonim to'kilgan xonadon eshigini oxirgi marta qulfladim-da, kalitni cho'ntagimga solib, yo'lga chiqdim. Quyosh nurlari endigina tog' cho'qqilarida jilvalana boshlagan edi. Ana-mana deb, ruhoniyning uyiga yaqinlashgan paytim sirenzorda[2] qorayaloqlar sayrashardi; subhidamdan buyon vodiyni qoplab yotgan tuman pardasi ko'tarilmoqda edi.

Essendinning ko'ngilchan ruhoniysi janob Kempbell kaminani chorbog' eshigi yonida kutib turgan ekan. U mendan: – Nonushta qildingmi, – deb so'radi. Qornim to'q ekanini bilgach, qo'shqo'llab so'rashdi-da, qo'ltig'imdan oldi va yelkamga do'stona shapatilab qo'ydi.

– Shunaqa gaplar, qadrdonim Devi, – dedi u. – Men seni daryogacha kuzatib boraman-u, yo'lni ko'rsatib qo'yib, izimga qaytaman. – Biz indamay qo'zg'aldik. Birpasdan keyin u: – Essendindan bosh olib ketayotganingga achinmayapsanmi? – deb so'radi.

– Nima deyishga hayronman, ser, – deb ming'irladim. – Agar qayoqqa ketayotganimni, peshonamga nimalar yozilganini bilganimda bormi, hech ikkilanmay javob qaytarardim. Essendin – tabarruk maskan, bu yerda ko'ngildagiday yashadim, ammo umrimda musofirchilik boshimga tushmagan, axir. Otam ham, onam ham olamdan o'tdilar – endi men Essendinda yashaymanmi, Mojoriston[3] qirolligidami, bari bir ularning diydorini ko'rolmayman. Shuning uchun, rostini aytsam, agar xorijiy yurtlarda murodi maqsadimga yetajagimni bilganimda, o'z uyimni

---

[1] **Javzo** (*arabcha*) – o'n ikki burjning biri, Saraton va Savr burjlari o'rtasida joylashgan. Shamsiya yil hisobida uchinchi oyning arabcha nomi: 22-may –21-iyun kunlariga to'g'ri keladi.

[2] **Siren** (*nemischa*: Sirene – naycha; sibizg'a) – nastarin.

[3] **Mojoriston** – Ruminiya.

tark etayotganimga sira ham achinmasdim.

– Shunaqami hali? – dedi janob Kempbell. – Nachora, Devi, taqdir ekan-da. Xullasi kalom, erta-indin boshingga tushadigan voqealardan ogoh etib qo'ymasam bo'lmaydi, shekilli. Volidayi mukarramang bandalikni bajo keltirgan, otang (u inson nomiga munosib zot va mo'min nasroniy edi) tez-tez kasal bo'la boshladi: kuni bitib borayotganini sezdi, asrab qo'yish uchun menga bitta xat topshirdi; unda senga atalgan meros raqam etilganini ta'kidladi. «O'lganimdan keyin, qo'lga ilinadigan buyumlar sotilib, xonadonimiz tartibga keltirilgach, mana shu xatni shaxsan o'g'limga topshirasiz va uni Kremond yaqinidagi Shos qo'rg'oniga kuzatib qo'yasiz», – dedi. Devi, marhumning barcha vasiyatlari ado etildi. «Men o'sha yerda tug'ilganman, o'g'lim ota yurtiga qaytishi lozim. U azamat yigit, qo'rqoq odamlar toifasidan emas – juda abjir, shubhasizki, qo'rg'onga omon-eson yetib oladi va hammaning mehrini qozonadi», – degan edi rahmatli otang.

– Shos qo'rg'oni?! – deb yubordim beixtiyor. – Sho'rlik otamning Shos qo'rg'oniga qanday aloqasi bor ekan?

– Shoshmay tur, – dedi janob Kempbell. – Xudo biladi. Men senga aytsam, azizim, qo'rg'on egalari sizlarga familiyadosh – ularni shoslik Belfurlar deb atashadi: so'nggi paytlari obro'-e'tibori bir oz to'kilgan bo'lsa-da, lekin ko'hna shajara; halolligi uchun hamma ularni hurmat qilardi. Qolaversa, otang rahmatli o'qimishli kishi edi. Aslida, bama'ni muallim shunaqa bo'lishi lozim. Uning maktabi namunali edi, gap-so'zlari-yu muomalasi xashaki o'qituvchilarnikiga aslo o'xshamasdi. Esingdami, men obro'li kishilarni mehmon qilgan chog'larda otangni, albatta, uyimizning to'riga o'tqazib qo'yardim; kilrennetlik Kempbell, dansvirlik Kempbell, minchlik Kempbell singari qarindosh-urug'larim va boshqa asilzoda jentelmenlar bilan suhbatlashib o'tirishni yaxshi ko'rishardi. Xo'p mayli, mana senga vasiyat qilingan xat: marhum birodarimiz o'z qo'li bilan manzilni yozib qo'ygan.

U menga xatni berdi, xatjildga quyidagi so'zlar bitilgan edi:

topshirilsin. Xatni mening o'g'lim – David Belfur eltib beradi».

Yuragim hapriqib ketdi: ovloq Etriks o'rmonidagi bechorahol qishloq o'qituvchisining o'n olti yashar o'g'liga birdan omad yor bo'lsa-ya! Axir, bu hazil gap emas!

– Janob Kempbell... agar mening o'rnimda siz bo'lganingizda nima qilardingiz? – deb so'radim, hayajondan tutilib-tutilib.

– O'ylab o'tirmasdan yo'lga otlanardim, – deb javob berdi ruhoniy. – Senga o'xshagan tiqmachoqday yigit Kremondga ikki kundayoq yetib boradi. Aytmoqchi, u yerdan Edinburggacha bir qadam qoladi, xolos. Agar ishlar chappasiga ketsa-yu, asilzoda qarindoshing (taxminimcha, sizlar, har holda, begona emassizlar) ketingga bir tepib, ko'chaga chiqarib tashlasa, buning qo'rqadigan joyi yo'q: yana ikki kunlik yo'ldan so'ng eshigimni taqillatishing mumkin. Lekin, umid qilamanki, seni quchoq ochib kutib olishadi, otangning niyatlari ro'yobga chiqadi. Nasib etsa, vaqti kelib katta odam bo'lib ketasan. Azizim Devi, shu tobda – sen bilan xayrlashishdan avval, fursatdan foydalanib, oz-moz nasihat qilib qo'ymasam, ko'nglim joyiga tushmaydi. U nigohi bilan o'tirgani joy qidirdi va yo'l chetidagi oq qayin ostida turgan katta yumaloq toshga ko'zi tushdi-yu, uning ustiga o'rnashib o'tirib oldi: oftobdan saqlanish uchun dastro'molini uchburchak shlyapasining tepasiga tashlab qo'ydi – ikki qoya orasidan ko'rinib turgan quyosh to'ppa-to'g'ri bizning manglayimizga olov purkardi. U ko'rsatkich barmog'ini falakka o'qtalgancha yer yuzidagi ko'pdan ko'p gunohlardan meni ogoh eta boshladi, jumladan, kaminani uzluksiz ravishda Tavrotni[1] mutolaa qilishga undadi. Lekin ruhoniyning maslahatlari meni qiziqtirmasdi. Shundan so'ng u badavlat xonadondagi hayot manzarasini tasvirlab berdi va xonadon sohiblari bilan qanday muomala qilishim to'g'risida yo'l-yo'riqlar ko'rsatdi.

– Devi, mayda-chuyda narsalar uchun tortishib o'tirmagin, – dedi u. – Esingda bo'lsin: sen dvoryan[2] oilasida dunyoga kelgan

[1] **Tavrot** (*yahudiycha:* «tora» – ta'limot, qonun) – iudaizm dinining muqaddas kitobi.

[2] **Dvoryan** (*ruscha:* «дворянин», «дорянс») – knyaz, podsho saroyida xizmat qiluvchi shaxs.

bo‘lsang ham, qishloqda tarbiyalangansan. Yuzimizni yerga qaratib qo‘ymagin, Devi, bizni isnodga qoldirma! Qarol-cho‘rilarning har qanday toifasida uchraydigan o‘sha to‘kin-sochin, mashhur xonadonda boshqalardan orqada qolmagin; ehtiyot bo‘lib, o‘ylab qadam tashlagin, ko‘p gapirmagin. Endi xonadon boshlig‘i masalasiga kelsak, yodingda tutgin: u xo‘jayin. Izohga hojat bo‘lmasa kerak: og‘zi qiyshiq bo‘lsa ham, boy gapirsin, degan maqol bejiz aytilmagan, axir. Shajara boshlig‘iga itoat etish ham farz, ham qarz. Hech bo‘lmasa, kishi yoshligida shunday deb o‘ylashi lozim.

– Gaplaringizda jon bor, ser, – dedim. – Chizgan chizig‘ingizdan chiqmaslikka va’da beraman.

– Binoyideksan-ku! – dedi janob Kempbell xursand bo‘lib. – Xo‘sh, endi ashyoviy dalillar xususida gaplashsakmi-a? Albatta, tajnis[1] uchun xudoning o‘zi kechirsin-u, balki bu hech qanday ashyo emasdir. Yonimda bo‘g‘cha bor, – dedi-da, ichki cho‘ntagidan bir narsa oldi. – Bo‘g‘chaga to‘rtta narsani solib qo‘yganman. Shulardan birinchisi qonun bo‘yicha senga tegishli: boya aytganimdek, bu otangdan qolgan kitoblar va boshqa buyumlarning puli – ularni o‘zim sotib oldim; keyinchalik otangning o‘rniga birorta o‘qituvchi kelsa, o‘shanga pullayman, mo‘ljalimcha, uch-to‘rt tanga choychaqa qoladi, shekilli. Yana uchta narsa esa men bilan Kempbell xonimdan sovg‘a; qo‘limizni qaytarma – chol-kampirni xursand qilgin, bolam. Biri – yumyumaloq, dastlabki paytlari shunisi ko‘proq yoqsa kerak. Lekin Devi, jigarim, bu daryodan tomchi, xolos. Hash-pash deguncha tamom bo‘ladi – uning izi ham qolmaydi. Yapaloq, to‘rtburchak tumor esa bir umr senga madadkor bo‘ladi: uzoq safarlarda horib-tolsang, unga hassaday suyanasan, tobing qochgan paytlarda yumshoq yostiqday bosh qo‘yib yotasan. Xo‘sh, oxirgisi – hamma tomoni teng ashyo – men chin dildan ishonamanki, bu narsa mushkulingni oson qiladi, seni boqiy dunyo sari yetaklaydi.

U so‘zlarini tugatdi-yu, o‘rnidan turdi, shlyapasini yechib hayotga ilk bora mustaqil qadam qo‘yayotgan o‘smir haqiga

[1] **Tajnis** – so‘z o‘yini. Bu yerda «shakkoklik» ma’nosida qo‘llanyapti (tarjimon izohi).

qizg'in duo o'qidi. Keyin meni ilkis bag'riga bosdi-da, o'zidan nari surib, diydorimga to'yib-to'yib tikilib oldi – uning yuzlari cho'g'day qizarib ketgan edi; so'ngra shartta orqasiga burildi-yu: «Alvido!» – deb qichqirgan ko'yi biz kelgan yo'l bo'ylab shitob iziga qaytdi. Nazarimda, begona odamga bu holat kulgili ko'rinsa kerak, ammo o'zim hozir kuladigan ahvolda emasdim. U ko'zga ko'rinmay ketguncha orqasidan termilib turdim; u qadamini sekinlatmadi, bir marta ham orqasiga qayrilib qaramadi. Shundagina ayriliq naqadar og'ir ekanini anglab yetdim va birdan o'zimdan o'zim uyalib ketdim – qani endi, yer yorilsa-yu, kirib ketsam! Axir, ovloq qishloqni tark etayotganimdan benihoya shod edim, bosar-tusarimni bilmay qolgan edim: dang'illama, gavjum xonadonga – qondosh, jondosh bo'lgan badavlat, savlat to'kib yuradigan janoblar huzuriga ketyapman-ku!

«Eh, Devi, Devi! – dedim ichimda. – Axir, bu ko'rnamaklik emasmi! Nahotki dongdor kishilarning nomlarini eshitishing bilan darhol ko'zlaringni chirt yumib, barcha yaxshiliklarni, do'stlaringni esdan chiqarib yuborishga tayyor bo'lsang-a? Uyalgine, uyat!»

Men boyagina ko'ngilchan ruhoniy qo'nim topgan yumaloq tosh ustiga o'tirdim-da, sovg'alarni ko'zdan kechirish uchun bo'g'chani ochdim. «Hamma tomoni teng ashyo», – deyilgandayoq nima nazarda tutilayotganini anglagan edim: albatta, bu cho'ntakbop mo'jaz Tavrot edi – muqaddas diniy kitob. «Yum-yumaloq» – tanga ekan, bir shilling[1]. Uzoq safarlarda horib-tolsam, tobim qochsa va umuman, menga bir umr madadkor bo'ladigan «tumor» esa sarg'ayib ketgan bir parcha dag'al qog'oz ekan – unga qizil siyoh bilan quyidagi so'zlar bitilgan edi:

«Marvaridguldan tomchi dori tayyorlash usuli. Marvaridgul olinadi-da, rangsiz vinoga tashlab qo'yiladi, keyin har kuni bir yoki ikki choy qoshiqdan ichiladi, ehtiyojga qarab iste'mol qilinadi. Natijada duduqlarning nutqi izga tushib ketadi, oftob urgan kishilar shifo topadilar, yurak o'ynog'ini to'xtatadi va xotirani mustahkamlaydi. Gul shisha idishga solinadi-yu, qopqog'i mahkam berkitiladi va chumoli uyasiga tiqib qo'yiladi, o'sha joyda

[1] **Shilling** – pul birligi, funt sterlingning yigirmadan bir bo'lagiga teng (tarjimon izohi).

bir oy turgandan so‘ng qaytarib olinadi: gullardan sharbat ajralib chiqqanini ko‘rasan, uni kichik idishlarda asrash lozim – bu bemor-u sog‘ kishilarga ham, erkak va ayollarga ham birday foydalidir».

Bitik ostiga ruhoniy o‘z qo‘li bilan ushbu so‘zlarni qo‘shimcha qilgan edi.

«Ayni chog‘da suyak chiqqanda (surtish kerak) va sanchiq boshlanganda (har soatda bir choy qoshiq dori ichiladi) ham foydasi tegadi».

To‘g‘risini aytsam, bu qog‘ozga qarab turib kulgim qistadi va ayni paytda ko‘zlarimdan yosh tirqirab ketdi. Men zudlik bilan tugunchani qayqi[1] tayoq uchiga ildim-da, kechuvdan daryoning narigi sohiliga o‘tib oldim. Qiyalikdan adir tepasiga ko‘tarildim va ikki chetini supurgi gullar qoplagan, poda yuradigan ko‘m-ko‘k so‘qmoqqa qadam qo‘ydim-u, Essendin ibodatxonasiga, ruhoniy xonadoni tevaragida chayqalayotgan daraxtlarning uchlariga va ota-onam dafn etilgan qabristonning baland-baland chetan[2] devorlariga bir qur nazar tashladim-u, unsiz xayrlashdim.

IKKINCHI BOB

MANZILGA YETDIM

Ikkinchi kuni ertalab yana adir cho‘qqisiga ko‘tarildim: ko‘z o‘ngimda dengiz sohiliga tutashgan manzara yaqqol namoyon bo‘ldi, chek-chegarasi ko‘rinmaydigan tog‘ tizmasi yonbag‘rida – nishablik o‘rtasida go‘yo qizdirilgan pechday Edinburg shahri tutab yotardi. Qo‘rg‘on tepasida bayroq hilpirardi, ko‘rfaz uzra kemalar suzib yurardi yoki bandargohga langar tashlashgan edi: masofa xiyla yiroq bo‘lishiga qaramay, ularni aniq ko‘rib turardim va kaminaning – qishloqi yigitchaning qalbi birdan to‘lqinlanib ketdi,

Tez orada bitta cho‘pon kulbasiga ro‘para keldim,

---

[1] **Qayqi** – egri-bugri.

[2] **Chetan** – 1) sochiluvchi yuklarni tashish uchun tol, tut novdalaridan to‘qib yasalgan maxsus kajava, kuzov; 2) chetandan qilingan, chetan bilan o‘ralgan (**asarda shu ma’noda**); 3) ra’noguldoshlar oilasiga mansub, qizil yoki sarg‘ish shoda-shoda mevali daraxt yoki buta hamda uning mevasi.

Kremondga borish uchun qaysi yo'nalish bo'yicha ketish lozimligini bilib oldim. Shunday qilib, duch kelgan yo'lovchidan so'ray-so'ray poytaxtning yonidan o'tib, g'arb tomonga ketaverdim – Kolington ham ortda qolib ketdi va oxiri Glazgoga olib boradigan yo'lga chiqdim. Ko'cha bo'ylab o'tib borayotgan polk[1] askarlarini uchratdim; ular musiqa sadolari ostida bir maromda qadam tashlashardi: oldinda kulrang otga mingan, g'ishtga o'xshash dag'al yuzli keksa general borardi, norg'ul yigitlardan saralab olingan grenaderlar[2] rotasi esa safning oxiriga tizib qo'yilgan edi – ularning bosh kiyimlari Rim papasining tojini eslatardi. Men negadir ich-ichimdan suyunib, og'zim ochilguncha askarlarni kuzatib turardim: jangchilarning qizil mundirlari[3]-yu tantanavor musiqa sadolari a'zoyi badanimni jimirlatib yubordi.

Bir ozdan keyin men Kremond viloyatiga qadam qo'ydim; endi odamlardan, Shos qo'rg'onini so'ray boshladim. Ajab hol: kimga murojaat etsam, u menga hayratlanib tikilib qolardi. Dastlab, qishloqi turq-u atvorim, safar mobaynida obdan changga belangan qopga o'xshash ust-boshim o'zim yo'qlab borayotgan g'aroyib maskanga sira ham munosib bo'lmasa kerak, deb o'yladim. Lekin ikki yoki uch marta bir xil javob qaytarishgach, turli qiyofalarda hayrat alomatlarini ko'rdim-u, ko'nglimda shubha paydo bo'ldi: «Balki Shos qo'rg'onida ishlar pachavadir? Har holda, u yerda bir sir bo'lsa kerak».

Ko'nglimda uyg'ongan shubhaga chek qo'yish maqsadida boshqacha tarzda savol berishga qaror qildim: dala-yo'lda foytun[4] ko'rindi, o'rindiqda oliyjanob zot o'tirardi; men undan «Shos qo'rg'oni» deb ataladigan uyning xo'jayini haqida biror gap eshitgan-eshitmaganini so'radim. U aravani to'xtatdi-da, boshqa yo'lovchilar singari boshimdan oyog'imgacha sinchiklab razm soldi. So'ng:

---

[1] **Polk** (*ruscha;* bir gala, to'p (qiz); olomon; qo'shin) – odatda, diviziya yoki brigada tarkibiga kiradigan va bir necha batalon va rotadan tashkil topgan harbiy qism.

[2] **Grenadyorlar** (*fransuzcha*) – asosan dushman istehkomini qamal qilishda asosiy rol o'ynaydigan piyoda yoki otliq qo'shinlarning saralangan qismi.

[3] **Mundir** (*fransuzcha*; aslaha-anjom kiyingan, go'zal; kiyim, libos) – harbiy yoki rasmiy form; ustki kiyim.

[4] **Foytun** – to'rt g'ildirakli, ochilib-yopiladigan soyabonli yengil arava.

– Eshitganman, – dedi. – Nimaydi?

– Rostdan ham badavlat xo'jalikmi? – deb so'radim.

– Bo'lmasam-chi, – dedi. – Dang'illama imorati bor.

– Tushunarli, – dedim. – Xo'p mayli, odamlari qanaqa?

– Odamlari?! – deb qichqirib yubordi. – Es-hushing joyidami o'zi? Axir, u yerda odam yo'q-ku!

– Nimalar deyapsiz? – dedim. – Janob Ebenezer odam emasmi?

– Ha-ya, u rostdan ham odam, – dedi. – Agar senga qo'rg'onning egasi kerak bo'lsa, shak-shubhasiz, u mavjud. Ammo buning nima hojati bor-a?

– Meni ishga yollarmikan deb o'ylagan edim, – dedim o'zimni go'llikka solib.

– Nima?! – deb baqirib yubordi aravakash. Tovushidan hatto ot hurkib ketdi. – Menga qara, o'g'lim, – deb davom etdi, – albatta, bu mening ishim emas, ammo xushmuomala yigitchaga o'xshayapsan, shuning uchun bitta maslahat bermoqchiman: esing bo'lsa, Shos qo'rg'onidan uzoqroq yurgin!

So'ngra boshiga dabdabali yasama soch qo'ndirib olgan harakatchan kishi duch keldi; fahmlashimcha, u mijozi huzuriga oshiqib ketayotgan sartarosh edi: avvaldan bilardimki, sartaroshlar gap tashishga nihoyatda o'ch bo'lishadi, shuning uchun undan to'ppa-to'g'ri Shosda yashaydigan janob Belfur qanaqa odam deb so'rab qo'ya qoldim.

– Diydori qursin! – deb pishqirdi sartarosh. – Odam emish, topgan gapingni qara-yu! Axir, uning odamlik siyohi yo'q-ku! – Keyin tilyog'lamalik bilan mening asl niyatimni bilib olishga urindi, lekin men ayyorlik qildim – uning qo'ynini puch yon-g'oqqa to'ldirib yubordim.

Quloq-chakkamga birov tarsaki tortib yuborganday bo'ldi, esankirab qoldim. Men galvars, chuchvarani xom sanab yurgan ekanman-da!.. Mavhum imo-ishoralar jonimga tegdi, xomxayollardan miyam g'ovlab ketdi. Bu qanday janobning uyi bo'ldiki, o'sha tomonga eltadigan yo'lni so'rab-surishtirsang – bas, to'satdan butun viloyat bir sapchib tushadi, odamlar esa ko'zlarini pirpiratgancha senga qarab baqrayib qolishadi? U qanaqa odam ekanki, katta ko'chada uchragan yo'lovchi otning qash-

qasiday tanisa? Agar piyoda yurib Essendinga bir soatda yetib borish mumkin bo'lganda, sarguzashtlarim allaqachon poyoniga yetgan bo'lardi – men janob Kempbell huzuriga qaytardim. Lekin uzoq yo'lning asosiy qismini bosib o'tdim, endi ortga qaytishga g'ururim izn bermasdi: hech bo'lmasa, izzat-nafsimni qondirish uchun ham gap nimada ekanini aniqlashim, manzilga yetib borishim lozim. G'alati gaplarni eshitaverib dovdirab qolgan, oyog'imga tosh bog'langanday sudrab qadam tashlayotgan bo'lsam-da, o'jarlik bilan yo'lni so'rab-surishtirishda davom etardim, olg'a borardim.

Kun botayotgan paytda bitta ayolga duch keldim; u miqtigina edi, qora soch; aftidan, xiyla vaysaqi ko'rinardi – harsillab-harsillab nishablikdan pastga tushardi. Unga ham odatdagi savol bilan murojaat etdim-u, u orqasiga ters burilib, o'zi hozirgina tark etgan adir cho'qqisiga meni ergashtirib chiqdi va qo'li bilan vodiy tubini ko'rsatdi – yam-yashil o'tloqzorda ulug'vor tosh-qo'rg'on savlat to'kib turardi. Chor atrof nihoyatda go'zal edi: tepalikni dov-daraxtlar qoplagan edi, irmoqda shildir-shildir suv oqardi, serhosil ekinzor ko'rinib turardi, lekin imorat odam yashaydigan maskanga o'xshamasdi; u tomonga olib boradigan birorta ham so'qmoq ko'rinmasdi, mo'rilardan tutun chiqmasdi, bog' esa huvullab yotardi. Birdan yuragim tovonimga tushib ketganday bo'ldi.

– Anavimi? – deb yubordim beixtiyor.

Ayolning ko'zlarida g'azab uchquni yolqinlandi.

– Xuddi o'zi! – Birdan uning jazavasi tutib vaysay boshladi: – Inson jonidan bunyod etilgan, qonsirab yotibdi, begunoh to'kilgan qonlar uni yer bilan yakson qiladi.

Qarab tur: men unga tufuraman! Tuf-tuf! abadulabad iribchirib ketsin! Uy egasini ko'rsang, eshitgan gaplaringning hammasini aytgin, xo'pmi? Jennet Kluston seni bir ming ikki yuz-u o'n to'qqizinchi marta qarg'adi, la'natladi deb aytgin! Xudoyo xudovando, uning uyini, molxonasini-yu otxonasini, oshxonasi-yu oshpazlarini, barcha qavm-u qarindoshlarini-yu xizmatkorlarini, mehmonlari-yu yetti pushtini yer yutsin!

Ayol shartta orqasiga burilib g'oyib bo'ldi. Men xuddi tizzamgacha yerga botib ketganday turgan joyimda qaqqayib

qoldim, qo‘rquvdan sochlarim tikka bo‘lib ketdi. O‘sha zamonlarda hali yalmog‘iz kampir borligiga ishonardik, qarg‘ish odamlarni birpasda dahshatga solib qo‘yardi; xullas, manzil ostonasida bunday gaplarning yangrashi yaxshilik alomati emasdi, balki yo‘limdagi to‘siqlar nishonasi edi. Oyoqlarimda majol qolmadi. Asta yerga o‘tirdim-da, Shos qo‘rg‘onini ko‘zdan kechira boshladim. Qanchalik uzoq tikilganim sari bu o‘lkaga nisbatan tobora mehrim ortib borardi: chaman-chaman gullab yotgan qalin do‘-lana ham, yam-yashil o‘tloq, alohida paykallarda oqarishib ko‘rinayotgan sulizorlar-u to‘p-to‘p bo‘lishib osmonda parvoz etayotgan go‘ngqarg‘alar – bularning hammasi bu yer nihoyatda unumdor va ob-havosi orombaxsh ekanini bildirardi, faqat maydon o‘rtasidagi rutubatli toshquti ko‘nglimga ko‘lanka tashlab turardi, xolos.

Dala-tuzdan qaytayotgan dehqonlar yon-verimdan o‘ta boshladilar, men bo‘lsam, hamon yo‘l chetida hafsalam pir bo‘lib o‘tirardim, hatto ularga: «Hormanglar!» – deyishga ham yaramasdim. Nihoyat, quyosh ufqqa bosh qo‘ydi va shunda men sarg‘ish osmonga o‘rlayotgan hilolday tutunni ko‘rib qoldim, u xuddi shamdan chiqayotganga o‘xshardi – ingichka. Lekin bari bir bu boshpanadan taralayotgan tutun edi; demak, o‘choqqa o‘t yoqilgan, uy isitilyapti, kosaga qaynatma ovqat quyiladi – xonadonda tirik jon bor, u gulxan yoqyapti, shuning o‘zidayoq kishiga taskin berardi.

Men maysa qoplagan torgina so‘qmoq bo‘ylab o‘sha tomonga jo‘nadim. So‘qmoqni arang ilg‘ab olish mumkin edi, xolos. Inson bolasi istiqomat qilayotgan maskanga eltadigan yagona yo‘lning bunday ko‘rinishi g‘alati tuyulardi, lekin boshqa yo‘l ko‘rinmasdi. Tez orada toshdan yasalgan ikkita ustun ro‘parasidan chiqib qoldim; ularning ustiga gerb o‘rnatilgan edi. Yonginasida esa toshdan qurilgan, tomsiz qorovulxona turardi. Ko‘rinib turibdiki, bu yerda qurilish oxiriga yetkazilmagan edi: hashamatli – quyma darvoza o‘rnida ustunlarga somon bog‘lab qo‘yilgan ikki qanotli bog‘ eshik turardi. So‘qmoq na bog‘ chetiga tortilgan to‘siqqa, na bo‘sag‘adagi mo‘jaz xiyobonga duch kelardi – ustunlarni o‘ng tomondan aylanib o‘tardi-yu, ilonizi misoli imorat sari yo‘nalardi. Manzilga qanchalik yaqinlashsam,

imorat menga tobora xuvullab yotganday tuyula boshladi. Go'yo u chala-yarim qurilishning cho'ltoq qanotiga o'xshardi: dastlab rejalashtirilgan o'rta qismi ma'lum qavatgacha tiklangan edi, xolos. Pog'ona-pog'ona g'isht devorlar shundoq ko'rinib turibdi. Ko'pgina derazalarga oyna solinmagan edi; ko'rshapalaklar pir etib uchib chiqishardi-yu, yana ortlariga qaytishardi – bamisoli boloxonada istiqomat qilayotgan kaptarlarga o'xshardi.

Imorat tomon borardim. Oqshom cho'kdi. Odatdagidan yuqori birinchi qavatning uchta derazasidan g'ira-shira shu'la ko'rina boshladi. Derazalarga qalin-qalin panjara qoplangan edi. O'h-ho', men uzoq yo'l bosib, istiqboliga intilayotgan saroy shunaqa ekan-da! Nahotki mana shu devorlar qurshovida kaminani yangi do'stlar-u porloq kelajak kutib turgan bo'lsa? Ha, jonajon Essen-Uotersaydimda ham kindik qonim to'kilgan uyning derazalaridan shunaqa yog'du taralardi, mo'rilardan shunaqa tutun chiqardi – bir chaqirim naridan ko'rinib turardi. Qolaversa, eshigimizni hatto tilanchi taqillatsa ham, darrov ochar edik!

Uyga oyoq uchida yaqinlashdim-u, ichkariga quloq soldim: birov likopchalarni taraqlatdi, kimdir quv-quv yo'taldi, lekin, koshkiydi, inson zotining tovushi eshitilsa, jilla qursa it xursa ham go'rgaydi – yuragim siqilib qilib ketdi.

G'ira-shirada ilg'ashimcha, eshik ulkan daraxtning bir bo'lagi, shekilli, zil-zambilday tuyulardi, mix qoqilmagan joyi yo'q. Zo'rg'atdan yuragim betlab qo'limni ko'tardim va eshikni bir marta taqillatdim. So'ng kutib turdim. Jimjitlik – xuddi o'lik chiqqan uyga kelib qolganday bo'ldim; abadiyatday cho'zilgan daqiqalar o'tib borardi, ammo tiq etgan tovush eshitilmasdi, faqat boshim uzra ko'rshapalaklar charx urardi, xolos. Yana bir bora eshikni taqillatdim-u, ichkariga quloq tutdim. Endi quloqlarim jimjitlikka shu qadar ko'nikib qolgan ediki, beixtiyor ichkarida chiqillayotgan soat tovushini payqab qoldim – soniyalar bir maromda hisob-kitob qilinardi; lekin uyning noma'lum egalari hamon sukut saqlardi, hatto nafas olmasdilar.

Ko'nglimda shubha uyg'ondi, yaxshilikcha juftakni rostlasammikan deb o'yladim. Lekin birdan jahlim chiqib ketdi va eshikni mushtlay boshladim, gumburlatib tepib-tepib yubordim,

tovushimning boricha janob Belfurni chaqirdim. Umuman, o'zimni idora qilolmay qoldim. Birdan aynan mening tepamda birov yo'taldi; zudlik bilan orqaga chekinib, boshimni ko'tardim; pastki qavatning derazasidan tungi qalpoq kiyib olgan erkak kishining boshi va pilta miltiqning quvuri ko'rindi.

– O'qlangan, – dedi tovush egasi.

– Men Shos qo'rg'onining sohibi bo'lmish janob Ebenezer Belfurga xat olib keldim, – dedim. – Bu yerda o'sha kishi yashaydimi?

– Xatni kim yozgan? – deb so'radi pilta miltiqli kishi.

– Buning ishga aloqasi yo'q, – dedim, chunki g'azabim benihoya jo'shib ketgan edi.

– Mayli, – degan tovush eshitildi yuqoridan. – Xatni eshik ostiga tiqib qo'ygin-u, tuyog'ingni shiqillat!

– Nima-nima? – deb qichqirib yubordim. – Bu xat kimga atalgan bo'lsa, o'sha kishiga beriladi: janob Belfurning o'z qo'liga topshiriladi. Bu oddiy xat emas, tavsiyanoma.

– Qanaqa noma? – deb so'radi kimsa taraddudlanib.

Men gapimni takrorladim.

– Xo'sh, o'zing kim bo'lasan? – deb so'radi u xiyla vaqt o'tgach.

– Men o'z nomimdan uyalmayman, – dedim zarda aralash. – Mening nomim Devid Belfur.

Qasam ichishim mumkinki, bu so'zlarni eshitishi bilanoq noma'lum kimsa titrab ketdi: pilta miltiq deraza chetiga taraq etib urildi. Navbatdagi savol ancha-muncha fursatdan keyin berildi va ajabki, u kishining tovushi muloyimlashib qolgan edi.

– Otang vafot etdimi?

Men hayratdan dong qotib qoldim, tilim kalimaga kelmasdi: ko'zlarimni pirpiratganimcha serrayib turaverdim.

– Afsus, vafot etibdi, afsus, – deb bosh chayqab qo'ydi u kishi. – Shuning uchun mening eshigimni do'mbira qilib chalayotgan ekansan-da. – Yana sukunat boshlandi. So'ng u bir oz dadillashib so'zlarini yakunladi: – Nachora, do'sti aziz, men seni mehmon qilaman.

U deraza ortida g'oyib bo'ldi.

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
KUTUBXONASI
58642

UCHINCHI BOB

AMAKIM BILAN TANISHUV

Tez orada qator-qator zulfinlar-u zanjirlarning jarang-jarang tovushi eshitildi-yu, eshik salgina qiya ochildi va men ostona hatlab ichkariga kirgan zahotim yana yopildi.

– Oshxonaga kir, biror narsaga tega ko'rma, – deb buyurdi menga tanish tovush egasi.

Qo'rg'on sohibi zo'r hafsala bilan eshikni qulflay boshladi. Men tavakkal qilib oldinga yurdim-u, birdan oshxonaga kirib qoldim. O'choqda gurkirab olov yonar, xonaga yog'du taralardi; umrimda bu darajadagi ship-shiydam oshxonani ko'rmagan edim. Javonda besh-oltita likopcha turibdi, stol ustiga ovqat qo'yilgan edi: suli bo'tqa suzilgan kosa-yu suyak qoshiq, bir finjon pivo. Tosh gumbazli ushbu keng-mo'l xona yaroqsiz buyumlar makoniga aylantirilgan bo'lib, devor yonlarida qulflangan sandiqlar-u burchakda kattagina qulf osilgan idish-tovoq javonchasi turardi.

Anavi kimsa eshikka oxirgi zanjirni ildi-yu, orqamdan oshxonaga kirdi. U zahil yuzli, nimjongina kishi edi: bukchayib qolibdi, yelkalari puchmaygan; aftidan, yoshini bilib olish mushkul; uni ellikka kirgan yoki yetmishga borgan mo'ysafid chol deyish mumkin. Qalpog'i to'qima edi, yirtiq-yamoq ko'ylagining ustidan ham to'qima xalat kiyib olgan: na nimchasi, na belburma kamzuli bor edi. Ko'pdan buyon soqoliga ustara tegmagani ko'rinib turardi. Lekin eng ajablanarlisi, hatto dahshatlisi – uning ko'zlari edi: u mendan nigohini uzmasdi, yuzlarimga yeb qo'ygudek bir alpozda tikilib-tikilib qarardi. Uning kasb-kori, hunari nima ekanini aytish qiyin, albatta. Shunday bo'lsa ham, u ko'proq keksa xizmatkorga o'xshardi – allaqachon hech ishga yaramay qolgan-u, faqat qornini to'ydirish uchun uyni qo'riqlab yotardi.

– Ovqat yeysanmi? – deb so'radi u, nigohini taxminan tizzalarimga qadagan ko'yi. Manavi bo'tqaning tuzini ko'rishing mumkin.

– Nazarimda, bu ovqatni o‘zingiz yemoqchisiz, – deb javob berdim.

– Hechqisi yo‘q, – dedi u. – Men shundoq ham bir ilojini qilaman. Lekin pivoni ichib qo‘yaman, bu yo‘talimga dori bo‘ladi. – U mendan ko‘zlarini uzmay yarim finjonni bo‘shatdi-da, birdan qo‘lini cho‘zib: – Qani, ko‘raylik-chi, qanaqa xat ekan, – dedi.

Men e’tiroz bildirdim:

– Bu xat sizga emas, janob Belfurga atalgan, – dedim.

– Seningcha, men kimman? – dedi u. – Aleksandrning xatini bu yoqqa ber!

– Siz otamning ismini bilasizmi?

– Bilmas ekanman-da! – deb to‘ng‘illadi u. – Otang mening tug‘ishgan og‘am, aziz do‘stim Devi, men senga amaki bo‘laman. Ko‘rinib turibdiki, sen mendan ham, uyimdan ham, to‘yimli suli oshimdan ham jirkanyapsan. Tag‘in mening tug‘ishgan jiyanimsan. Qani, xatni ber-chi, o‘zing o‘tir – qorningni to‘ydirib ol.

Agar bir-ikki yosh kichikroq o‘smir bo‘lganimda bormi, uyalganimdan, charchaganimdan, hafsalam pir bo‘lganidan ho‘ngrab yuborardim. Hozir na bir og‘iz haqorat yoki maqtov so‘zi aytishga qurbim yetmasa-da, indamay xatni unga berdim va yorma bo‘tqani pok-pokiza tushirdim.

Bu payt amakim gulxanga engashgan ko‘yi qo‘lidagi xatni aylantira boshladi.

– Unda nimalar yozilganini bilasanmi? – deb so‘radi u tuyqusdan.

– Ser, muhr buzilmagan, – deb javob qaytardim. – O‘zingiz ham ko‘rib turibsiz-ku.

– Shundaylikka shunday-ku-ya, – dedi u. – Lekin sen bu yoqqa bekordan bekorga kelmagandirsan, to‘g‘rimi?

– Xatni topshirgani keldim.

– Ana xolos! – dedi mug‘ombirlik bilan. – O‘ylaymanki, nimadandir umidvor ham bo‘lgansan, shundaymi?

– Tonmayman, ser, – dedim. – Boy-badavlat qarindoshlarim bor ekanini aytishgan paytda rostdan ham umidvor bo‘lganman: ular menga madad berishadi, deb o‘ylaganman. Ammo men

tilanchi emasman, sizning sadaqangizga qarab qolganim yo‘q. Har holda, chin ko‘ngildan hadya etilmagan in’om o‘zingizga siylov. Odmigina ust-boshimga e’tibor bermang, mening do‘stlarim ko‘p – har doim jon deb yordam beradilar.

– Paq-puq, miltiqdori! – dedi Ebenezer amakim. – Bekordan bekorga tajang bo‘laverma. Mana ko‘rasan, biz hali apoq-chapoq bo‘lib ketamiz. Devi, do‘stginam, agar bo‘tqaga to‘yib qolgan bo‘lsang, kosani o‘zim yalab qo‘yaman. Hm-m, suli bo‘tqa – dong‘i ketgan ovqat, – dedi u va meni taburetkadan[1] nari surdi-yu, qo‘limdan qoshiqni oldi. – To‘yimli yemish, shirinligini aytmaysanmi! – U shosha-pisha kalima qaytardi-yu, ovqat yemoqqa tutindi. – Esimda bor, otang ham ovqat yeyishni juda yaxshi ko‘rardi. uni yebto‘ymas deb bo‘lmasdi-yu, lekin nihoyatda xo‘ra edi, men unday emas – bir-ikki cho‘qilayman-u, to‘yaman-qolaman. – U pivoni lo‘q-lo‘q ichdi-yu, birdan mehmondo‘stligi yodiga tushib qoldi, shekilli:

– Agar tomog‘ingni ho‘llab olmoqchi bo‘lsang, eshik orqasida suv bor, – dedi.

Men indamadim, amakimdan ko‘zlarimni uzmay, serrayib turaverdim. Sabr kosam lim-lim to‘lgan edi. Amakim esa hamon og‘ziga ovqat tiqqan ko‘yi dam-badam mening boshmoqlarimga, dag‘al, qishloqcha paypoqlarimga nazar tashlab qo‘yardi. U faqat bir marta nigohini ko‘tardi-yu, ko‘zlarimiz to‘qnashdi: amakim xuddi qo‘lga tushgan kissavur kabi sarosimaga tushib qoldi. Bu holat ko‘nglimda g‘alati mulohaza uyg‘otdi: balki, u ko‘pdan beri odamlarga aralashmay qo‘ygani uchun ham o‘zini g‘ayritabiiy tutayotgandir, bir oz ko‘nikma hosil qilgach, hammasi o‘tib ketar – amakim butunlay boshqa odamga aylanar? Uning xirildoq tovushi xayollarimni to‘zg‘itib yubordi.

– Otangning vafot etganiga ancha bo‘ldimi-a?

– Uch hafta bo‘lyapti, ser, – deb javob berdim.

– U xayolchan odam edi, Aleksandrni aytaman-da, sirli ko‘rinardi, indamas edi, – deb davom etdi amakim. – Yoshligida ba’zan kun bo‘yi bir og‘iz ham gapirmasdi. Hoynahoy, men ha-

[1] **Taburet(ka)** (*nemischa:* Taburett) – suyanchig‘i bo‘lmagan, kvadrat yoki gardish shaklidagi o‘rindiq; kursi.

qimda ham ko‘p gapirmagan bo‘lsa kerak-a?

– Ser, o‘zingiz aytganingizga qadar men uning ukasi borligini ham bilmasdim.

– Bay-bay-bay, – dedi Ebenezer. – Nahotki, u Shos haqida hikoya qilib bermagan?

– Bu nomni biror marta tilga olmagan, ser.

– Aql bovar qilmaydi! – dedi amakim. – Hayronman, u qanaqa odam ekan!

Shunga qaramay, u o‘zidanmi, mendanmi yoki otamning ajabtovur xulq-atvoridanmi – bilmadim-u, lekin nihoyatda mamnun edi. Shubhasizki, men paydo bo‘lgan dastlabki paytlardagi begonasirash, hatto kin-adovat kayfiyati asta-sekin tarqala boshladi. Har qalay, birpasdan so‘ng u sapchib o‘rnidan turdi-yu, menga orqa tomondan yaqin kelib, dadil-dadil yelkamga qoqib qo‘ydi.

– Ozgina muddat o‘tsin, ana innaykeyin biz apoq-chapoq bo‘lib ketamiz! – deb qichqirdi u. – Ochig‘ini aytsam, men seni uyga taklif etganimdan xursandman. Xo‘p, endi o‘ringa kirib damingni olgin.

Ajablanarlisi shundaki, u fonus yoki shamchiroq yoqib o‘tirmadi, qop-qorong‘i yo‘lakka chiqdi-yu, paypaslangancha, hansirab-hansirab zinapoyadan yuqoriga ko‘tarila boshladi, keyin qandaydir eshik qarshisida to‘xtadi va uni ochib ichkariga kirdi. Men ko‘r-ko‘rona ravishda uning orqasidan ergashib borardim; oyog‘ini bosib olgan zahotim u mana shu xona menga atalganini e’lon qildi va ichkariga kirishga taklif etdi. Ostonadan o‘tdim-u, bir necha qadam yurganimdan so‘ng joyimda taqqa to‘xtab, o‘ringa kirib olish uchun chiroq so‘radim.

– Paq-puq! – dedi Ebenezer amakim. – Oppoq oydinda-ya!

– Ser, na oy bor, na yulduz! – deb e’tiroz bildirdim. – Zimziyo, karavotni ko‘rmayapman.

– Paq-puq, safsata! – dedi u. – Men uyda chiroq yoqib o‘tirishni yomon ko‘raman. Yong‘in chiqishidan o‘lguday qo‘rqaman. Xayrli tun, Devi, aziz do‘stginam.

U yana e’tiroz bildirishimni kutib o‘tirmay zudlik bilan eshikni yopdi-da, tashqaridan qulflay boshladi.

Dam kulgim qistardi, dam yig‘lagim kelardi. Xona quduq-

dan ham sovuqroq edi; paypaslay-paypaslay karavotni topdim; ma'lum bo'ldiki, u ham botqoq misoli shilta ekan. Yaxshiyamki, qalin jun ro'mol bilan bo'g'chani qo'ltig'imga qistirib olgan ekanman; ro'molga o'randim-u, salobatli karavot yoniga – polga cho'zildim. Birpasda ko'zim ilindi.

Tong otishi bilan uyg'onib ketdim: keng-mo'l xonada yotardim, devorlarga naqsh solingan terilar yopishtirilgan edi, xilma-xil mebellar terib qo'yilgandi va uchta yirik-yirik derazasi bor ekan. O'n yil, ehtimolki, yigirma yil muqaddam bunday joyda uxlash yoki uyg'onish kishiga huzur bag'ishlagan bo'lishi mumkin, albatta. Lekin o'tgan davr mobaynida namlik, tartibsizlik, ko'rshapalaklar-u o'rgimchaklar o'z ishlarini ado etib ulgurishgan edi. Boz ustiga, derazalarning barcha oynalari chil-chil sinib tushgan edi va umuman, butun qo'rg'on oynasiz huvullab yotardi; beixtiyor o'ylash mumkinki, bir zamonlar amakim Jennet Kluston boshchiligidagi g'azabi qaynagan qo'ni-qo'shnilarining tajovuzkorona hujumlariga dosh bergan bo'lsa-da ajab emasdi.

Ayni chog'da deraza ortidan charaqlab quyosh ko'rindi. Men bo'lsam la'nati xonada junjikib o'tirardim. Zo'r berib eshikni taqillata boshladim va tovushimni baralla qo'yib, zindonbonni chaqirdim. Nihoyat, u meni ozod qildi,

U kaminani uy orqasidagi quduq boshiga ergashtirib bordi. Quduq tepasida yog'och paqircha osig'liq turardi.

«Mana, istasang, yuvingin», – dedi amakim. Yuvinib-tarandim va tezda oshxonaga bordim: u o'choqqa olov qalab, yana suli bo'tqa pishirardi. Stol ustida ikkita kosa, ikki dona suyak qoshiq turardi-yu, lekin bir finjon pivo bor edi, xolos. Nazarimda, dasturxonga bir oz sinchkov nazar soldim, shekilli, balki ajablanayotganimni amakim sezgandir, har qalay, u mening fikrimga javob qaytarayotganday:

– Pivojon ichging kelyaptimi? – deb so'radi. Suyuq ichimlikni ulug'lab, «pivojon» deb atardi.

– Odatda, oz-moz ichib turardim, lekin siz xotirjam bo'ling, – deb javob berdim.

– Nega endi, – dedi u. – Sen uchun hech narsamni ayamayman. Albatta, me'yorni unutmaslik kerak.

Javondan ikkinchi finjonni oldi-yu, unga ko'zadan to'ldirib

pivo quyish o‘rniga o‘zining finjonsidagi pivoning roppa-rosa yarmini bo‘lishtirdi. Bu harakat o‘ziga xos oliyjanoblik alomati edi; qalbim to‘lqinlanib ketdi. Albatta, qarshimda xasis chol turardi, lekin u uchiga chiqqan xasis edi – uning illati ham go‘yo fazilatday tuyulardi.

Ovqatlanib bo‘ldik. Ebenezer amakim idish-tovoqlar saqlanadigan javon g‘aladonini ochdi-da, sopol trubkasini[1], bir quti tamakisini oldi va bir chekimlik tamakini ushatdi-yu, qutichani joyiga tiqib qo‘ydi. Keyin derazadan tushayotgan oftobga o‘zini toblagancha jimgina tamakisini tutatdi. Goh-goh menga nazar tashlab qo‘yardi va uzuq-yuluq savollar berardi. Bir payt u mendan:

– Kampir qalay, onangni aytaman? – deb so‘radi.

– U ham vafot etgan, – deb javob berdim.

– Ha, xushro‘y qiz edi boyoqish. – Keyin ancha paytgacha miq etmadi va oxiri: – Do‘stlaring qanaqa odamlar? – deb so‘radi.

– Hammasi jentlmenlar – Kempbellar avlodidan, – deb javob berdim. Aslida esa, ularning orasida menga zig‘ircha e’tibor beradigani bo‘lsa, u ham yolg‘izgina ruhoniy edi, xolos. Ammo, nazarimda, amakim meni kamsitayotganday tuyuldi va yuzma-yuz turgan paytimizda so‘roqlaydigan jonkuyarlarim borligini unga pisanda qilib qo‘ymoqchi bo‘ldim.

Aftidan, u ichida nimalarnidir xomcho‘t qilib ko‘rdi, so‘ng tilga kirdi:

– Devi, do‘sti aziz, amaking Ebenezer huzuriga tashrif buyurib xato qilmagansan. Men uchun oila shon-sharafi hamma narsadan yuqori turadi. Burchimni ado etaman, qarzimni uzaman. Lekin men seni qayoqqa joylashni uzil-kesil hal etmagunimcha og‘zingdan gullab qo‘ymagin; allaqanday tog‘li o‘lkadagi yalangoyoq Kempbellar oldida Belfur o‘z qadrini tushirmasligi lozim. Seni huquqshunoslik sohasiga tavsiya etsammikan yoki ruhoniylik durustmi, balki harbiy xizmat ma’quldir – axir, yigitlar faqat sipoh bo‘lishni orzu qiladilar-ku?.. Iltimos,

[1] **Trubka** – papiros naychasining tamaki tiqilmagan, og‘izga olinadigan qismi; 2) sigaret, o‘ralgan maxorka tiqib chekish uchun mo‘ljallangan naycha.

hozircha o‘zingga mahkam bo‘l: hech qanday xat-pat yozmaysan, birov bilan aloqa qilmaysan. Xullas, hech kimga hech narsa demaysan, agar bu talabim yoqmasa, ana – katta ko‘cha, xohlagan tomonga ketaver, xudo yor bo‘lsin!

– Ebenezer amaki, sizga ishonaman – menga faqat yaxshilik qilmoqchisiz, – dedim. – Shunday bo‘lsa ham bilib qo‘yingki, mendayam o‘zimga yarasha g‘urur bor: bu yerga o‘z xohishimga ko‘ra kelganim yo‘q, agar bir marta ko‘chani ko‘rsatadigan bo‘lsangiz, keyin bu so‘zni takrorlashga hojat qoldirmayman.

Oh, ko‘rdimki, javobim unga yoqmadi!

– Paq-puq! – dedi u. – Shoshqaloq ekansan, muhtaram do‘stim. Bir-ikki kun sabr qilgin, axir! Ko‘rib turibsan-ku, men sehrgar emasman – bo‘tqa suzilgan anavi kosadan jaranglab oltin to‘kolmayman. Sen faqat menga bir yoki ikki kun muhlat bergin, hech kimga hech narsa demagin: xotirjam bo‘l, men sening g‘amingni yeyman, xolos.

– Xo‘p mayli, – dedim. – Qisqa va lo‘nda. Agar siz menga yordam bermoqchi bo‘lsangiz, minnatdor bo‘lardim.

Nazarimda, amakimning popugi pasayib qoldi (balki, yanglishayotgandirman), shuning uchun darrov unga yangi talabimni bayon etdim: ko‘rpa-to‘shaklarimni oftobga yoyib quritish lozim, bunday ho‘l latta-puttalarga burkanib uxlashni mutlaqo istamayman.

– Bu uyda kim xo‘jayin: senmi yoki men? – deb xirilladi u yoqimsiz tovushda, so‘ng birdan dami ichiga tushib ketdi. – Devi, do‘stginam, biz endi talashib-tortishib o‘tirsak, uyat bo‘lar... Qondoshlik – quruq gap emas, Belfurlar avlodidan faqat ikkovimiz qoldik, xolos.

U tutilib-tutilib shajaramizning qadimiy shon-shuhrati haqida so‘zlay boshladi: aytishiga qaraganda, buvam ushbu qo‘rg‘on qurilishiga asos solgan ekan, lekin u ortiqcha sarf-xarajatlarga chek qo‘yibdi. Shu payt Jennet Kluston topshirig‘ini bajarishga ahd qildim.

– Yaramas maxluq! – deb to‘ng‘illadi u. – Bir ming ikki yuz-u o‘n to‘qqiz – demak, men uning qarzlari evaziga lash-lushlarini sotib yuborganimdan beri har kuni qarg‘ayotgan ekan-da! Hechqisi yo‘q, Devi, hali u qo‘limga tushadi – dodini beraman! Men